MICROSOFT ACCESS ASOSIDAGI QAROR QABUL QILISH TIZIMI ORQALI LABORATORIYALARDA "ISO 9001:2015" VA "ISO/IEC 17025:2017" STANDARTLARINI JORIY ETILISH DARAJASINI BAHOLASH .....	1025
<b>Mamajonov Abduvohid Abduraxmonovich, Abdujabborov Obidjon Oribjon o'g'li</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INNOVATSION RIVOJLANISH: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR .....	1032
<b>Aksakalov Ravshanjon Dolimjonovich</b>	
ENTROPIYA ASOSIDA MA'LUMOTLARNI SIQISH ALGORITMLARINI TAHLIL QILISH .....	1038
<b>Jovliyeva Dilnoz Mustofa qizi</b>	
SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASINING KONSEPTUAL MODEL I .....	1043
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
YENGIL AVTOMOBIL UCHUN YONILG'I SARFINI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN ECO-HARAKAT REJIMLARINI NAZARIY ASOSLASH USLUBI .....	1048
<b>Fattohjonov Bekzod Rasuljon o'g'li, Ro'zimov Sanjarbek Komilovich, Ravshanbekov JaxongirAlisher o'g'li, Muxitdinov Akmal Anvarovich</b>	
AQSHNING ILG'OR TAJRIBASI ASOSIDA IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1058
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>	
IJTIMOY HIMOYA KATEGORIYASINING TRANSFORMATSON RIVOJLANISHI .....	1067
<b>M.Sh.Raximova</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISH VA AUDITORLIK XULOSASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY HAMDA AMALIY ASOSLARI.....	1072
<b>Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li</b>	
IPAK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING TEXNOLOGIK VA SIFAT KO'RSATKICHLARI .....	1077
<b>Mahmudov Umidjon Bahodir o'g'li , TurdialiyeV Umid Muxtaraliyevich, Sulaymonov Sharifjon Abdumanabovich</b>	
QORAQALPOG'ISTONDA RAQAMLI TADBIRKORLIK EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1085
<b>Babanazarova Gulzar Ziuatdinovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH ORQALI HUDUDLARNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	1089
<b>Ibragimova Ma'mura Muxiddinovna</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISH MODELLARI VA ULARNING AHAMIYATI.....	1094
<b>Abduraimov Dilshod Muratkulovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ КАРАКАЛПАКСТАНА В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТРУКТУРЫ .....	1098
<b>Оспанова Феруза Базарбаевна</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	1103
<b>Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi</b>	
INVESTITSIYA DASTURLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI MENEJMENT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI.....	1107
<b>Axmedova Dilnoza Muzaffarovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА РЫНОК ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ, ТЕНДЕНЦИИ И СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ .....	1112
<b>Хусаинов Р.Р., Кариева Л.С., Загидулина К.Р.</b>	
KONUSSIMON SHAKLDAGI TIBBIY ENDOPROTEZLAR UCHUN TAYYOR SHAKLGA YAQIN ZAGOTOVKALAR OLI SHNING RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYASI .....	1121
<b>Umarova Maxmuda Abdugafarovna, Karabayeva Lola Xasanovna</b>	



KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI .....	1125
<b>Mahmudova Nargiza Davlat qizi</b>	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	1129
<b>Даниярова Улбосин Куатбаевна</b>	
ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL ECONOMY TECHNOLOGIES ON REGIONAL PRODUCTION, SERVICE SECTOR DEVELOPMENT, AND EMPLOYMENT .....	1135
<b>Kurbonova Malika Akhmad kizi</b>	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ВТОРОМУ .....	1140
<b>Ходжаева Хадия Сулейманова</b>	
IMPROVING INTEREST RATE RISK MANAGEMENT PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS AND ITS PRIORITIES .....	1146
<b>Seitnazarov Daniyar Baxadirovich</b>	
KAM QAVATLI TURAR-JOY BINOLARIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GIPSOKARTON KARKAS DEVORLARINING USTUNLIGI .....	1151
<b>Mirzaxonova Mexribon Marat qizi, Raxmonova Mahliyoxon Avazjon qizi, Baratova Mushtariybegim O'tkir qizi</b>	
O'ZBEKISTON IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA ENERGIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASHDA ARIMA MODELIDAN FOYDALANISH.....	1159
<b>Kuralbayev Jo'rabek Aybekovich</b>	
IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	1163
<b>Mamatmurodov Alisher Saparboyevich</b>	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1172
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI .....	1178
<b>Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich</b>	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
<b>Uralov Shavkat Makhramovich</b>	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
<b>Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich</b>	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI .....	1193
<b>No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li</b>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
<b>O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li</b>	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH .....	1204
<b>Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li</b>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI .....	1209
<b>Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI .....	1215
<b>Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
<b>Ajibayeva Raiya Maxsutovna</b>	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
<b>G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li</b>	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
<b>Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi</b>	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
<b>Tuyinov Botir Ismatovich</b>	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
<b>Abdulmajeed Nabeel Azouz</b>	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
<b>Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович</b>	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL .....	1255
<b>Sharipov Abror Komilovich</b>	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT .....	1260
<b>Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich</b>	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI .....	1265
<b>Sattorov Sanjar Abdumurodovich</b>	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
<b>Sevara Aytieva Allaberdiyevna</b>	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI .....	1279
<b>Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI .....	1286
<b>Xikmetov Nodirbek Ikromovich</b>	
O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZM DESTINATSIYALARINING HUDUDIY RIVOJLANISHI VA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH .....	1293
<b>Ibroximov Nodirbek</b>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLINI IJTIMOY TA'MINOTINI TARTIBGA SOLISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARI.....	1299
<b>Xusanov Baxodir Sheraliyevich</b>	
QURILISH KORXONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	1302
<b>Yahyoyev To'liqin Ismatulla o'g'li</b>	
QASHQADARYO VILOYATIDA SUG'URTA XIZMATLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK TAHLILI.....	1306
<b>Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li</b>	
ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS AND CURRENT STATE OF INVESTMENTS IN HUMAN CAPITAL IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	1310
<b>Akhmadaliyeva Nikholakhon</b>	
MANAGEMENT SYSTEM TRANSFORMATION AS A STRATEGIC DRIVER OF SUSTAINABLE PRODUCTION EFFICIENCY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES .....	1317
<b>Kodirov Bekzod Khomidjonovich</b>	



O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY  
SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO'LLASH ISTIQBOLLARI ..... 1322

**O'ktamova Nargiza Narzulla qizi**



# O‘ZBEKISTON TA‘LIM TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH SHAROITIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

**O‘ktamova Nargiza Narzulla qizi**

TDIU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [Uktamova.nargiza@mail.ru](mailto:Uktamova.nargiza@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekistonda ta‘lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlil qilinadi. Xususan, davlat byudjeti xarajatlari, ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha mablag‘lar dinamikasi hamda ta‘lim sohasida amalga oshirilgan DXSh loyihalarining soni va qiymat ko‘rsatkichlari baholanadi. Tadqiqot natijasida davlat byudjeti va xususiy investitsiyalarni uyg‘unlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanib, istiqbolli moliyalashtirish yondashuvlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** davlat-xususiy sheriklik, ta‘lim, maktabgacha ta‘limni moliyalashtirish, davlat byudjeti, xususiy investitsiyalar.

**Abstract.** This article analyzes the current state of financing public-private partnership (PPP) projects in the context of the transformation of the education system in Uzbekistan. In particular, it examines government budget expenditures, the dynamics of funding across education sectors, and the quantitative and value indicators of implemented PPP projects in education. Based on the research findings, priority areas for integrating public and private investments are identified, and scientific proposals and recommendations are developed to enhance the effectiveness of prospective financing approaches.

**Keywords:** public-private partnership, education, financing of preschool education, government budget, private investment.

**Аннотация.** В данной статье анализируется текущее состояние финансирования проектов государственно-частного партнёрства (ГЧП) в условиях трансформации системы образования в Узбекистане. В частности, рассматриваются расходы государственного бюджета, динамика финансирования по направлениям образования, а также количественные и стоимостные показатели реализованных проектов ГЧП в сфере образования. По результатам исследования определены приоритетные направления сочетания бюджетных и частных инвестиций, а также разработаны научные предложения и рекомендации по повышению эффективности перспективных подходов к финансированию.

**Ключевые слова:** государственно-частное партнёрство, образование, финансирование дошкольного образования, государственный бюджет, частные инвестиции.

## KIRISH

Ta‘lim infratuzilmasini kengaytirish, yangi quvvatlarni yaratish va mavjud obyektlarni modernizatsiya qilishni faqat davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan ta‘minlash tobora murakkablashib bormoqda. Shu sharoitda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) ta‘lim sohasiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb etish, moliyaviy yukni maqbullashtirish hamda xizmatlar qamrovini kengaytirishning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308-son qarori<sup>1</sup> – “O‘zbekiston Respublikasida 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hujjat bilan

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2024-08-30 dagi PQ-308-son <https://lex.uz/uz/docs/-7776360>



2024–2026-yillarda ustuvor DXSh loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari hamda 2024–2030-yillarda DXSh asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi tasdiqlandi [1].

Mazkur huquqiy bazani yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 720-son qarori<sup>2</sup> – “Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish va kompleks tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hujjat bilan DXSh loyihalarini moliyalashtirish tartibi, ularni tashabbus qilish, baholash, tanlash va bitim tuzish bosqichlari tizimlashtirildi [3].

Ta'lim sohasida, ayniqsa, maktabgacha ta'lim yo'nalishida ushbu yondashuv yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-152-son farmoni<sup>3</sup> – “Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi hujjat bilan maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'limning uzviyligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, xususiy sektor vakillarini rag'batlantirish hamda ta'lim jarayoniga innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilandi [2].

Mazkur jarayonlar ta'lim tizimini transformatsiya qilishda davlat mablag'lari bilan bir qatorda xususiy kapital, aralash moliyalashtirish va uzoq muddatli sheriklik modellarining roli tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi O'zbekiston ta'lim sohasida DXSh loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holatini baholash, mavjud moliyaviy mexanizmlarning afzallik va cheklovlarini aniqlash hamda istiqbolli moliyalashtirish yondashuvlarini asoslashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim tizimini moliyalashtirishga oid ilmiy adabiyotlarda asosiy e'tibor davlat byudjeti imkoniyatlari, xususiy sektor ishtiroki hamda investitsion samaradorlik o'rtasidagi nisbatga qaratiladi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, past va quyi o'rta daromadli mamlakatlarda SDG 4 maqsadlariga erishish uchun ta'lim sohasida yillik 97 mlrd AQSh dollari miqdorida moliyalashtirish tafovuti mavjud [4]. OECD tahlillarida esa boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlarida xarajatlarning asosiy qismi davlat manbalari hisobidan qoplanishi, oliy ta'limda esa xususiy mablag'lar ulushi nisbatan yuqori ekani qayd etiladi [5]. Mazkur holat zamonaviy ta'lim tizimida moliyalashtirishni faqat byudjet xarajatlari bilan cheklamasdan, balki aralash va ko'p manbali model asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy manbalarda DXSh ta'lim tizimiga qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirishning samarali vositasi sifatida baholanadi. Harry Anthony Patrinos, Felipe Barrera-Osorio va Juliana Guáqueta DXShni ta'lim maqsadlariga erishishda qamrov va sifatni oshiruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etadi [6]. Xalqaro tajriba, xususan, UNICEF tomonidan maktabgacha ta'lim sohasi bo'yicha e'lon qilingan tahliliy xulosalar shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarining samaradorligi to'rtta asosiy mezon — hududiy qamrov, ta'lim xizmatlari sifati, ijtimoiy inklyuzivlik va tashkiliy-iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari asosida kompleks baholanishi zarur [7]. Demak, ta'lim tizimini moliyalashtirishda “investitsion samaradorlik” tushunchasi nafaqat ajratilgan mablag' hajmi, balki uning ijtimoiy natijalari bilan ham belgilanadi.

Ta'lim tizimini moliyalashtirish borasidagi ilg'or xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yo'nalishda yagona universal model mavjud emas, balki har bir mamlakat o'zining institutsional va iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib moslashuvchan yondashuvlarni qo'llaydi. Xususan, Buyuk Britaniya amaliyotida maktab infratuzilmasini moliyalashtirishda xususiy moliyalashtirish tashabbusi (PFI) doirasida maxsus hisob-kitob mexanizmlaridan foydalaniladi [8]. Janubiy Koreya modelida raqamli ta'lim ekotizimini shakllantirish jarayonida davlat boshqaruvi va texnologik infratuzilmaning integratsiyasi kuzatilib, bu davlat va xususiy sektor o'rtasidagi funksional hamkorlikni kuchaytiradi. Singapur tajribasida esa maktab va sanoat hamkorligini muvofiqlashtiruvchi institutlar ta'lim muassasalari va biznes subyektlari o'rtasidagi uzluksiz aloqalarni ta'minlab, moliyaviy resurslar taqsimotini ta'lim xizmatlari sifati hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtiradi. Umuman olganda, jahon amaliyoti DXSh loyihalarining samaradorligi moliyaviy mexanizmlar bilan bir qatorda samarali boshqaruv, tizimli monitoring va aniq natijadorlik ko'rsatkichlariga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [9].

O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar asosan oliy va maktabgacha ta'lim tizimida DXShni rivojlantirish masalalariga qaratilgan. Iqtisodchi olim X. Rejapov tadqiqotlarida oliy ta'limda DXShni rivojlantirish orqali qamrovni kengaytirish va ta'lim xizmatlari bozorini faollashtirish zarurligini asoslab beradi [10]. K. R. Nasurova esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining o'рни va istiqbollarini tahlil qilib, xususiy investitsiyalarni jalb etish, nodavlat sektor faoliyatini rag'batlantirish hamda qamrovni kengaytirish maqsadida moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [11].

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.10.2024 yildagi 720-son <https://lex.uz/uz/docs/-7180726>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024 yildagi PF-152-son <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida DXSh loyihalarini moliyalashtirishning kompleks modeli, investitsion samaradorligi va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini yanada chuqurroq o'rganish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Mazkur maqola aynan ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlarni kengaytirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirish holatini baholash uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjetnoma materiallari, davlat byudjeti xarajatlariga oid rasmiy ma'lumotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ta'lim sohasiga doir statistik hisobotlari tashkil etdi. Empirik tahlilda 2021–2025-yillarda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hamda 2020–2025-yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilgan DXSh loyihalarining soni va qiymat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil usuli orqali davlat byudjeti va DXSh asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Qiyosiy iqtisodiy tahlil asosida yillar kesimidagi o'zgarishlar, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mablag'lar tarkibi hamda DXSh loyihalarining taqsimlanishi baholandi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlili yordamida ta'lim sohasida xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va moliyaviy mexanizmlar tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv ta'lim tizimida davlat va xususiy sektor moliyalashtirishining amaldagi holatini aniqlash, shuningdek, istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston ta'lim tizimini moliyalashtirish holatini baholashda, avvalo, davlat byudjeti hisobidan ajratilgan mablag'lar dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'lim sohasida davlat byudjeti asosiy moliyaviy tayanch bo'lib qolmoqda hamda ushbu mablag'lar ta'lim tizimining bazaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, 2021–2025-yillarda ta'lim yo'nalishlari bo'yicha davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning tarkibi va dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. 2021–2025-yillarda davlat byudjetidan ta'lim sohasiga ajratilgan xarajatlar dinamikasi (mlrd so'm)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025 (prognoz)
Maktabgacha ta'lim (MTT)	7 985,0	10 151,9	11 722,9	13 740,1	15 764,7
Umumiy ta'lim	27 247,7	33 138,1	39 682,5	45 076,4	54 023,0
Kadrlar tayyorlash	4 408,1	6 981,3	9 814,7	12 424,0	14 545,0

1-jadval ko'rsatkichlari asosida 2021–2025-yillarda ta'lim sohasiga davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning izchil oshib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, ta'lim xarajatlari 2021-yildagi 39 640,8 mlrd so'mdan 2025-yilda 84 332,7 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

Eng katta ulush umumiy ta'lim hissasiga to'g'ri kelib, uning hajmi 27 247,7 mlrd so'mdan 54 023,0 mlrd so'mga oshgan. Maktabgacha ta'lim xarajatlari esa 7 985,0 mlrd so'mdan 15 764,7 mlrd so'mga yetib, qariyb ikki barobar ko'paygan. Kadrlar tayyorlash yo'nalishida ham sezilarli o'sish kuzatilib, mablag' hajmi 4 408,1 mlrd so'mdan 14 545,0 mlrd so'mga yetgan.

Mazkur natijalar ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida davlat tomonidan barcha bo'g'inlarga e'tibor izchil kuchayib borayotganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Ta'lim sohasida amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalari ko'rsatkichlari (mln so'm)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Jami
Ta'limdagi umumiy loyihalar soni (qiymati)	92 059,9	46 052,9	901 969,3	620 553,6	1 355 694,4	1 411 219,6	4 427 549,7
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (qiymati)	92 059,9	46 052,9	5 779,7	0,0	102 433,0	531 600,3	777 925,8
Universitet va institutlar (OTM) (qiymati)	0,0	0,0	885 008,3	620 553,6	1 253 261,4	879 619,3	3 638 442,6
Boshqa ta'lim loyihalari (hokimliklar) (qiymati)	0,0	0,0	11 181,3	0,0	0,0	0,0	11 181,3



2-jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar asosida 2020–2025-yillarda ta'lim sohasida jami 324 ta DXSh loyihasi amalga oshirilgan bo'lib, ularning umumiy qiymati 4 427 549,7 mln so'mni tashkil etadi. Shundan 210 ta loyiha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimiga to'g'ri kelib, bu umumiy loyihalarning 64,8 foizini tashkil etadi. Biroq mazkur loyihalarning qiymati 777 925,8 mln so'm bo'lib, umumiy summadagi ulushi nisbatan past darajada ekanligi kuzatiladi. Aksincha, universitet va institutlarda 111 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lsa-da, ularning qiymati 3 638 442,6 mln so'mni tashkil etib, jami loyiha qiymatining asosiy qismini egallaydi.

Demak, ta'lim sohasida davlat byudjeti asosiy moliyaviy tayanch bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, DXSh mexanizmlari qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish va infratuzilmani rivojlantirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limida DXSh loyihalarining son jihatdan yuqori ulushi ushbu yo'nalishda xususiy sheriklikka bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat byudjeti asosiy tayanch manba bo'lib qolmoqda. Biroq ta'lim xarajatlari hajmining izchil ortib borishi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va kadrlar tayyorlash yo'nalishlarida mablag'larga bo'lgan ehtiyojning kengayishi ushbu sohada qo'shimcha moliyaviy manbalarni jalb etish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat-xususiy sheriklik loyihalari nafaqat byudjet yukini maqbullashtirish, balki infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmatlar qamrovini kengaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tahlillar DXSh loyihalarining, ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida faol rivojlanayotganini ko'rsatdi. Bu holat mazkur yo'nalishda xususiy sheriklikka bo'lgan talab yuqori ekanini bildiradi. Shu bilan birga, loyiha qiymati bo'yicha oliy ta'lim muassasalarining ustunligi DXSh mexanizmlarining turli ta'lim bosqichlarida o'ziga xos moliyaviy model asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Demak, kelgusida ta'lim sohasida DXShni yagona yondashuv asosida emas, balki tarmoq xususiyatlari, investitsiya sig'imi va ijtimoiy natijadorlik mezonlarini hisobga olgan differensial model asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Istiqbolda DXSh loyihalarini moliyalashtirishda natijaga yo'naltirilgan yondashuvni yanada kuchaytirish zarur. Xususan, subsidiyalar va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini ta'lim sifati, qamrov darajasi, infratuzilma yangilanishi hamda xizmatlar samaradorligi kabi ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli boshqaruv vositalari, ochiq ma'lumotlar bazalari va elektron monitoring tizimlarini keng joriy etish DXSh loyihalarining shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida davlat byudjeti va DXSh mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish O'zbekistonda ta'limni moliyalashtirishning barqaror va samarali modelini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston ta'lim tizimini transformatsiya qilish sharoitida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini moliyalashtirish masalasi davlat byudjeti imkoniyatlari, xususiy kapital faolligi hamda ta'lim sifati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni talab etadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlat byudjeti hal qiluvchi o'rinni saqlab qolmoqda. 2021–2025-yillarda maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha ajratilayotgan mablag'larning izchil ortib borishi ta'lim sohasiga davlat e'tiborining ortib borayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini transformatsiya qilish, infratuzilmani kengaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish sharoitida faqat davlat mablag'lari bilan cheklanib qolish yetarli emasligi namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot natijalari ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalari qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish, byudjet yukini maqbullashtirish va tarmoqning alohida yo'nalishlarini jadallashtirishda muhim moliyaviy mexanizmga aylanib borayotganini ko'rsatdi. Ayniqsa, maktabgacha va maktab ta'limi tizimida DXSh loyihalarining son jihatdan ustunligi ushbu yo'nalishda xususiy sheriklikka bo'lgan talabning yuqoriligini, oliy ta'limda esa loyihalarning qiymat jihatidan yirikligi kapital sig'imi yuqori modellar ustunligini bildiradi. Bu esa ta'lim bosqichlari kesimida DXShni differensial moliyalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, ta'lim sohasida DXShni rivojlantirishda subsidiyalar va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini natijadorlik ko'rsatkichlariga bog'lash, loyihalarni tarmoq va hudud xususiyatlaridan kelib chiqib moliyalashtirish, shuningdek, elektron monitoring va ochiq ma'lumotlar tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, davlat byudjeti va DXSh mexanizmlarini o'zaro uyg'unlashtirish O'zbekistonda ta'lim tizimini barqaror, samarali va raqobatbardosh moliyalashtirish modelini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Ta'lim sohasidagi DXSh loyihalarini moliyalashtirishda natijaga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish zarur. Bunda subsidiya, kompensatsiya va imtiyozli kreditlar ta'lim sifati, qamrov darajasi hamda xizmatlar samaradorligi ko'rsatkichlariga bog'lanishi maqsadga muvofiq.



Qamrovi past va investitsiyaviy jozibadorligi nisbatan past hududlarda DXSh loyihalari uchun qo'shimcha moliyaviy rag'batlar joriy etish zarur. Xususan, bunday hududlarda foiz stavkalari pasaytirilgan kreditlar, maqsadli subsidiyalar va davlat kafolatlari samarali vosita bo'lishi mumkin.

DXSh loyihalarini boshqarishda elektron monitoring va ochiq ma'lumotlar tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bu moliyaviy oqimlarning shaffofligini ta'minlash, loyiha ijrosi va natijadorligini doimiy nazorat qilish imkonini kengaytiradi.

Ta'lim tizimida xalqaro standartlarni joriy etayotgan xususiy sheriklarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqish lozim. Bunda grantlar, soliq imtiyozlari hamda foizsiz yoki imtiyozli kreditlar orqali sifatga yo'naltirilgan DXSh loyihalarini rag'batlantirish mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-08-30 dagi PQ-308-son "O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikni 2024–2030-yillarda rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2024-12-30, 07/24/455/1092-son. <https://lex.uz/uz/docs/-7776360>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-152-son Farmon, 2024-09-30. <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish va kompleks tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 720-son qaror, 2024-10-30. <https://lex.uz/uz/docs/-7180726>
4. UNESCO. *Education Financing*. UNESCO, 2026.
5. OECD. *Education at a Glance 2025*. Paris: OECD Publishing, 2025.
6. Harry Anthony Patrinos, Felipe Barrera-Osorio, va Juliana Guáqueta. *The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education*. Washington, DC: World Bank, 2009.
7. UNICEF Uzbekistan. *Public-Private Partnerships in Early Childhood Care and Education*. Tashkent: UNICEF, 2018.
8. OECD. *Country Digital Education Ecosystems and Governance: Korea*. Paris: OECD Publishing, 2023.
9. UK Department for Education. *Private Finance Initiative (PFI) Factor in the Schools National Funding Formula Guidance*. London: GOV.UK, 2026.
10. X. Rejapov. "Directions of Public-Private Partnership Development in Higher Education in Uzbekistan." *The Scientific Heritage*, No. 53, 2020.
11. Kamolaxon Ravshanovna Nasurova. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikligining ahamiyati." *International Finance & Accounting*, No. 5, 2024, 1–9-betlar.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)